



**KORRUPSION JINOYATLAR: TUSHUNCHASI, TURLARI VA
XUQUQIY OQIBATLARI**
**КОРРУПЦИОННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И
ПРАВОВЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ**
**CORRUPTION CRIMES: CONCEPT, TYPES, AND LEGAL
CONSEQUENCES**

Turg'unboyeva Marjona Erkinboyqizi,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti,

2-bosqich yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 109-guruh talabasi

Valixonova Gulnoraxon Komiljonovna

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti,

Gumanitar fanlar kafedrasida dosenti

Tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: ushbu maqola O'zbekistonda eko-korrupsiya va uning oqibatlari, atrof muhitga tasiri, korrupsiyani keng tarqalishi boshqa davlatlarda eko-korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari. Mamlakatimizda eko-korrupsiyaga qarshi qonunchiliklarni ishlab chiqish va korupsiyaga qarshi kurashish ishlarini ilg'orsurish bayon etilgan.

Kalitso'zi: Eko-korrupsiya, inson, tabiiat, atrof-muhit, qonun, davlat, atmosfera, korxonalar, kelajak

Аннотация: В этой статье рассматривается эконо-коррупция в Узбекистане и её последствия, влияние на окружающую среду, распространённость коррупции в других странах, а также результаты мер по борьбе с эконо-коррупцией. Также подчёркивается разработка законодательства против эконо-коррупции в нашей стране и усилия по продвижению инициатив по борьбе с коррупцией.



Ключевые слова: *Эко-коррупция, Человек, Природа, Окружающая среда, Закон, Государство, Атмосфера, Предприятие / Компания, Будущее.*

Abstract: *This article discusses eco-corruption in Uzbekistan and its consequences, its impact on the environment, the prevalence of corruption in other countries, and the results of measures taken against eco-corruption. It also highlights the development of legislation against eco-corruption in our country and the efforts to advance anti-corruption initiatives.*

Keywords: *Eco-corruption, Human / Person, Nature, Environment, Law, State / Government, Atmosphere, Enterprise / Company, Future.*

Inson hayotda yaxshilikka intilib, yomonlikdan qaytib yashashga harakat qiladi. Hayot ezgulik bilan gozal. Ammo bazan ezgulikka yovuzlik kolanka soladi. Ana shu yovuzlik yomonlik huquqiy jihatdan jazoga loyqlik tamoyili sifatida belgilangan. O`zbekistonda ham eko-korrupsiyaga kurashish dolzarb mavzuligicha qolib ketmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolar jahon miqyosida dolzarb hisoblanadi. Ushbu muammolarning kuchayishiga korrupsiya ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Eko-korrupsiya — bu ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mansabdor shaxslarning o'z lavozim vakolatlarini suiiste'mol qilishi, pora evaziga qonunbuzarliklarga yo'l qo'yishidir. Bu holat ekologik qonunlarning buzilishiga va tabiiy muhitning yomonlashishiga olib keladi.

Bugungi kunda ekologiya masalalari insoniyat hayoti va jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Biroq ekologiya sohasida korrupsiya holatlarining mavjudligi bu jarayonlarga jiddiy to'sqinlik qiladi. Ana shunday salbiy holatlardan biri eko-korrupsiyadir. Ekologiya sohasidagi korrupsiya tabiatni muhofaza qilish ishlarining samarasini pasaytiradi. Bu holat noqonuniy faoliyatlarning ko'payishiga olib keladi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida asosiy tushunchalar berib o'tilgan masalan “korrupsiya-shaxsning o'z mansab yoki



xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"

O'zbekistonda eko-korrupsiya oqibatlarini atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Havo va suvning ifloslanishi, yashil hududlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi aholining sog'lig'i va yashash sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng achinarlisi, bu holatlar kelajak avlodla ruchun qaytatiklab bo'lmaydigan yo'qotishlarga olib keladi.

Korrupsiya sabablari: Atrof muhitni muhofazasiga xavfli bo'lgan xavfli bo'lgan obyektlar qurilishiga ruxsatnoma berish, loyiha hujjatlarini soxtalashtirish, daryo o'zanlaridan kum shag'al qazib olish, yashil hududni barbod qiladigan obodonlashtirish bo'yicha qimmatbaxo loyixalar muxokamasiga bag'ishlangan jamoat eshituvlari natijalarini yo'qqa chiqarish yoki soxtalashtirish, daraxtlarni kesishga ruxsat berishda xuquqiy xolatni o'rganmaslikm, noqonuniy ovga ruxsat berish.

Ekologik korrupsiyaning asosiy turlari: Atrof-muxit buzulishini yashirish uchun pora, atrof-muhitni baxolash va hisobotlarni soxtalashtirish, litsenziya va ruxsatnomalarni noqonuniy berish, sanoat va biznesdagi korrupsiya, atrof-muhit standartlariga etibor bermaslik uchun mansabdor shahslarga pora berish, ifloslantiruvchi moddalar emissiyasini manipulyatsiya qilish, noqonuniy chiqindihonalar, o'rmon xujjatlariga va yer boshqaruvidagi korrupsiya.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologiya sohasida korrupsiyaga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qonunchilik takomillashtirilmoqda, ekologik nazorat kuchaytirilmoqda, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining roli oshirilmoqda. Shu bilan birga, aholining ekologik va huquqiy ongini yuksaltirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda eko-korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olishda eng rivojlangan davlatlar sirasiga Yangi Zelandiya, Daniya, Singapur, Norvegiya va Shvetsiya kiradi. Ushbu mamlakatlar shaffoflik, qat'iy ekologik qonunchilik va



nazorat mexanizmlari orqali tabiiy resurslardan noqonuniy foydalanishni kamaytirishgan.

Eko-korrupsiyaga qarshi kurashishda yetakchi davlatlar tajribasi:

Yangi Zelandiya va Daniya: Transparency International hisobotlariga ko'ra, eng kam korrupsiyalashgan davlatlar hisoblanib, ekologik me'yorlarni buzishda juda qat'iy choralar ko'riladi.

Singapur: Ekologik loyihalar va ruxsatnomalar berishda raqamlashtirish va shaffoflikni yuqori darajaga olib chiqqan, bu esa poraxo'rlikni oldini oladi.

Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya): Ekologik jinoyatlar uchun yuqori jarimalar va shaffof monitoring tizimlarini qo'llaydi.

Xitoy: So'nggiyillarda "ekologik sivilizatsiya" siyosat idoirasida atrof-muhitni ifloslantirgan amaldorlarga nisbatan jiddiy jinoiy javobgarlikni kuchaytirdi.

ALAC modeli bo'yicha «Korrupsiya bo'yicha shikoyatlar kitobi» «Transparency International — Rossiya» tomonidan yaratilgan. Ekspertlar aholidan tushgan murojaatlarni o'rganib, huquq-tartibot organlarining shaffof ish olib borib, javobgarlikka tortilishini nazorat qilishadi.

Xo'sh O'zbekistonda eko-korrupsiyaga qarshi qonunchilik loyihalari ishlab chiqarilganmi va bu eko-korrupsiyaga qarshi ishlar olib borilmoqdammi? Bu savollar javobi yopiq holda qolib ketmoqda. Hozirgi kunda eko-korrupsiya to'g'risida bironta qonun hujjatlarida yoritib berilmagan va buning natijasida tabiiat zarar ko'rmoqda masalan, moratoriye'lon qilinishiga qaramasdan daryo o'zanlaridan qum, shag'al qazib olish, qurilish vaqtida daraxtlarni noqonuniy kesish yoki atmosferani boshqa tomondan ifloslantirilishi, ya'ni havoga zararli moddalar chiqaruvchi korxonalar filtr qo'ymasdan ishlashi va hokazo. Ekologik korrupsiya nafaqat tabiatga zarar yetkazadi, bu bevosita ekologik qonunchilikni buzilishini yaqqol ko'rinishi hisoblanadi.

Sardoba fojiasi: 2020 yilning 1-may kuni Sirdaryo viloyati hududidagi Sardoba suv omborida to'g'on o'pirilib, suv toshqini yuzaga kelgandi. Sardoba, Oqoltin va Mirzaobod tumanlaridagi aholi punktlari va ekinlar, tabiatga zarar yetgan.



Uchta tumandagi 22 ta qishloqdan 60 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilingan. Voqea oqibatida 6 kishi halok bo'lgan. Qozog'istonda 31 mingdan ziyod aholi o'z turar joyini tark etishga majbur bo'ldi.

«Sardoba» suv ombori Janubiy Mirzacho'l kanalining markaziy tarmog'i oqib o'tgan hududda barpo etilgan, qurilish ishlari 2009 yilda boshlanib, 2017 yilda yakunlangan.

Uni qurishdan maqsad Sirdaryo va Jizzax viloyatlari ekin dalalarini sug'oradigan suv bilan ta'minlash, keyinchalik bu yerda mini-GES ham barpo etish bo'lgan. Suv sig'imi qariyb 922 mln metr kub bo'lgan «Sardoba» suv ombori qurilishi «O'zbekiston temir yo'llari» AJ qoshidagi «O'ztemiryo'lqurilishmontaj» korxonasi boshchiligida olib borilgan.

Suv sathi balandligi 28,8 metr bo'lgan va 404 million AQSH dollari evaziga barpo etilgan.

Yuzasi 67,4 km² bo'lgan suv omboridan oqib chiqqan suv qariyb uch barobar kattaroq yuza — 175,29 km² joyda toshqin hosil qilgan.

2022 yil 17-sentabrda Sardoba fojiasi bo'yicha yana 29 kishiga sud hukmi o'qildi. Javobgarlikka tortilganlar orasida «O'ztemiryo'lqurilishmontaj», «Ko'prik qurilish butlash», «Sardoba tumani yo'llardan foydalanish» unitar korxonalari, «UzGip» MChJ Istiqbolli loyihalarni rejalashtirish bo'limi, «O'zbekiston temir yo'llari» AJning Hidroteknik inshootlarni qurish direksiyasi xodimlari bor.

Zomin milliy tabiat bog'ida dam olish uylarining qurilishi, yirtqich qushlar savdosi: Zomin davlat qo'riqxonasi noyob archazorlarni va archazorlardagi hayvonot dunyosining tabiiy holatda saqlanishini ta'minlash uchun 1928-yilda Turkiston tog' tizmasida Zomin tog' archazorlari davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan.

Hududda uch turdagi qora, o'rik va savr archalari mavjud. Bu yerda 700 turga yaqin yuksak o'simliklar o'sadi. Ularning 13 turi O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan, 48 turi G'arbiy Turkiston endemik turlari hisoblanadi. Bugungi kunda qo'riqxonada 105 oila 531 turkumga mansub 1216 tur o'simliklar uchrab,



ularning 21 turi O‘zbekiston Respublikasining “Qizil Kitobi”ga kiritilgan. Bu yerda shifobaxsh o‘simliklarning 20 turdan ortig‘i o‘sadi.

Qo‘riqxonada hududida baliqlarning 1 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, qushlarning 102 turi va sutemizuvchilarning 30 turi uchraydi.

Zomin milliy tabiat bog‘i O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasiga qarashli bo‘lib, tasarrufidagi umumiy yer maydoni 23 894 gektarni tashkil etadi.

Zarafshon daryosining Navoiy Azot tomonidan zaharlanishi: Daryo suvida azot ammoniy belgilangan me‘yorlardan 21 marotaba, azot nitrat 2,6 marotaba, azot nitrit 60 marotaba, xloridlar 1,3 marotaba, mis ionlari 2,1 marotaba yuqoriligi hamda daryoda yoppasiga zaharlanish yuzaga kelgani aniqlangan.

Zarafshon milliy tabiat bog‘ida dachalarning qurilishi.

Zarafshon daryosiga “Navoiyazot” tomonidan chiqarilgan zararli moddalar sabab yetkazilgan zarar miqdori qariyb 5 mlrd.ga yaqin ekan.

2023-yil 31-maydagi PQ-171 sonli qaroriga binoan: Ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini yo‘q qilish yoki buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar jiddiy huquqbuzarliklar toifasiga kiradi

Ekoturizmni rivojlantirish: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 978-son qarori

“Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”

Ijara — O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi yerlaridan 49 yil muddatga beriladi.

10-avgust kuni Vazirlar Mahkamasining “Zarafshon” milliy tabiat bog‘ini Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi 442-son qarori tasdiqlandi.



Qarorga muvofiq, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi hamda Samarqand viloyati hokimligi tasarrufidagi Jomboy va Bulung‘ur tumanlarida joylashgan, umumiy maydoni 2426,2 gektar bo‘lgan “Zarafshon” milliy tabiat bog‘i Ekoqo‘mita (Ekologiya vazirligi) tarkibiga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda eko-korrupsiya jamiyat va tabiat uchun eng xavfli tahdidlardan biridir. U nafaqat ekologik muvozanatni buzadi, balki davlatning barqaror rivojlanishiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida korrupsiyaviy holatlarning mavjudligi qonun ustuvorligi tamoyiliga putur yetkazadi hamda kelajak avlodlar huquqlarini xavf ostiga qo‘yadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ekologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida muhim qonunchilik islohotlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonun, 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori hamda ekoturizmni rivojlantirishga oid hukumat qarorlari ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda. Biroq eko-korrupsiyani alohida tushuncha sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlash, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va jamoatchilik ishtirokini yanada kengaytirish zarur.

Eko-korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlarining vazifasi emas. Bu har bir fuqaroning fuqarolik burchi hisoblanadi. Shaffoflik, ochiqlik, raqamlashtirish va ekologik ongni oshirish orqali tabiatni asrash mumkin. Zero, sog‘lom muhit — sog‘lom jamiyat garovidir. Tabiatni asrash bugunning vazifasi emas, balki kelajak oldidagi mas‘uliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida – O‘zbekiston Respublikasi qonuni, Toshkent, 2017.

PQ-171-son qarori – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31-may, 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror, 978-son, 3-dekabr, 2018.



3. Transparency International. “Corruption Perceptions Index” (Yangi Zelandiya, Daniya, Singapur, Norvegiya, Shvetsiya) – 2022.
4. Sardoba suv ombori fojiasi – Sirdaryo viloyati, 1-may, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. “Zomin milliy tabiat bog‘i va uning tabiiy resurslarini muhofaza qilish” – 2021.
6. Zarafshon daryosining ifloslanishi Navoiyazot tomonidan – Navoiy viloyati, 2022.
7. ALAC modeli: Transparency International – Rossiya. “Korrupsiyaga oid shikoyatlar kitobi” – Moskva, 2021.
8. Xitoy Ekologik siyosati bo‘yicha rasmiy hisobotlar: “Ekologik sivilizatsiya va amaldorlarning javobgarligi” – Pekin, 2020.